

### **Amaliy qism (15 min.).**

O'quvchilar «Orkestr» rasmini ko'rib, muhokama qilishadi, uni AR — sun'iy reallik ilovasi yordamida jonlantirish mumkin.

Shundan so'ng sinf "orkestrga" aylanadi. O'qituvchi sinfni simfonik orkestr musiqachilarini joylashgan tartibda o'tkazadi. Birinchi partalarda – birinchi skripkalar va violonchellar, ikkinchi partalarda – ikkinchi skripkalar va altolar. Uchinchi partalar – yog'och va puflama cholgi asboblari, to'rtinchи partalar – zarbli asboblar va royal. O'qituvchi o'quvchilarga qo'llari yordamida, belgilangan asboblardagi ijrochilarga taqlid qilishni taklif qiladi, qaysi asboblar guruhi hozirgi vaqtida o'z partiyasini ijro etayotgani ko'rsatiladi. Bunday "mashg'ulotdan" so'ng o'quvchilar orkestri, internetdagi o'quvchilar tomonidan tanlangan asarni, o'qituvchi-dirijyor boshchiligidagi ijro etadi (masalan, M.P. Musorgskiyning "Ko'rgazmadan suratlar").

### **Yakuniy qism (5 min.).**

O'qituvchi savollar beradi:

1. Dirijyor qayerda joylashgan?
2. Simli torli, puflab chalingan, urib chalinadigan asboblar guruhlari qayerda joylashgan?
3. Rasmdagi sizga tanish bo'lgan yana qanday musiqiy asboblarni ko'rdingiz?

**Mustaqil ish uchun topshiriq.** Rasmda sizga notanish bo'lgan asboblar haqida ma'lumot toping.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarga natijalarini baholash uchun notalar tasviri tushirilgan kartochkalar yordamida o'z yutuqlarini baholashni taklif qiladi: yoqdi – notaning shtilini yuqoriga yo'naltirish, yoqmadi – shtilni pastga yo'naltirish.

## **3-dars. Kim dunyoda hammadan mehribon (qo'shiq) Vatanjonim – Vatanim! (qo'shiq)**

### **Darsning maqsadi:**

- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish;
- o'quvchilarda vatanparvarlik hislarini va o'qituvchilarga hurmatli munosabatni rivojlantirish.

### **Ta'lim natijalari:**

- o'quvchilarning qo'shiqlarni to'g'ri ijro etish haqidagi tushunchalarini kengaytirish;
- o'quvchilarning vokal ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quvchilarda vatanparvarlik hislarini va o'qituvchilarga hurmatli munosabatni rivojlantirish.

**Zaruriy vositalar:** darslik, gadjet.

### **Kirish (5 min.).**

O'qituvchi o'quvchilarni kutib oladi, davomatni tekshiradi va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.

1. Konsert zalida o'zimizni to'g'ri tutishga nima yordam beradi?
2. Konsert zalida o'zini tutish qoidalardan qaysilarini eslab qoldingiz?
3. Partitura nima va u dirijyorga qanday yordam beradi?

### **Nazariy qismi (5 min.).**

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda "Kim dunyoda hammadan mehribon" qo'shig'ini tinglaydilar.

### **Amaliy qism (5 min.).**

Tinglab bo'lgandan so'ng o'qituvchi savollar beradi:

1. Bu qo'shiq kimga bag'ishlangan?
2. Bu qo'shiqni tinglaganingizda qanday his-tuyg'ular paydo bo'ldi?

### **Nazariy qismi (5 min.).**

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda "Vatanjonim-Vatanim!" qo'shig'ini tinglaydilar..

### **Amaliy qism (15 min.).**

Tinglab bo'lgandan so'ng o'qituvchi savollar beradi:

1. Bu qo'shiq kimga bag'ishlangan?
2. Ushbu qo'shiqni tinglaganingizda nimalarni his qildingiz?
- 3.

Keyin o'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, topshiriq beradi: birinchi guruh qo'shiq matnini satr-satr o'qiysi, ikkinchisi uni takrorlaydi, shundan so'ng guruhlar rollarni almashtiradilar. O'quvchilarning diqqati to'g'ri talaffuz qilishga qaratiladi. Natijada o'quvchilar ikkala qo'shiqni ham yoddan o'rGANADILAR.

### **Yakuniy qism (5 min.).**

Mustaqil ish uchun topshiriq: adabiy manbalardan yoki Internetdan foydalanib, o'qituvchilar va Vatanga bag'ishlangan she'r va qo'shiqlarni toping. Sevimli asaringizni tanlang va tanlovingizni tushuntiring.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarni qarsaklar yordamida o'z yutuqlarini baholashni taklif qiladi – agar yoqqan bo'lsa, baland ovozda qarsak chalishadi.

## **4 dars. Estrada musiqasi**

### **Darsning maqsadi:**

- o'quvchilarda musiqiy janrlar xilma-xilligi haqida tasavvur hosil qilish;
- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish.

### **Ta'lim natijalari:**

- o'quvchilarda musiqiy janrlar xilma-xilligi haqida tasavvur mavjud;
- o'quvchilarda estrada musiqasi haqida tasavvur mavjud;
- o'quvchilar avlodlar orasidagi estrada musiqasi farqlarini biladilar.